



"NAVOIYURAN" DAVLAT KORXONASI

210100, Navoiy shahri, Inspektorlar ko'chasi, 7
tel.: +(99879) 5070050, 5070051, fax: +(99879) 5070052
www.navoiyuran.uz, e-mail: info@navoiyuran.uz

Sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash sohasida Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi

SIYOSATI

"Navoiyuran" davlat korxonasi (keyingi o'rinlarda - Korxona deb yuritiladi) tabiiy uranni qazib olish, qayta ishlash va ishlab chiqarish ishlarini amalga oshiradi, shuningdek, chalaoksid-oksid (U_3O_8) ko'rinishida eksport qiladi.

Korxona Yuqori rahbariyati ushbu Siyosatni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar ISO 9001:2015, ISO 14001:2015, ISO 45001:2018 me'yorlaridan kelib chiqib, sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohalari bo'yicha Korxona Maqsadlariga erishish, Integratsiyalashgan boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirish uchun qabul qiladi.

IBT siyosati "Navoiyuran" DKning har bir xodimi uchun yo'l-yo'riq sifatida xizmat qiladi va sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohasida Maqsadlarni belgilash va ularga erishish bo'yicha keyingi harakatlar uchun asos bo'la oladi.

Korxonaning sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohasida Integratsiyalashgan boshqaruv tizimining ko'lami **"Tabiiy uranni qazib olish, qayta ishlash va ishlab chiqarish"**dir.

Korxonaning sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohasidagi Ustuvor Maqsadlari:

- ❖ iste'molchilar va boshqa asosiy manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va talablarini maksimal darajada qondirishni ta'minlaydigan usullar bilan vazifa va qarashlarni amalga oshirish;
- ❖ atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish;
- ❖ korxona xodimlari va uning boshqaruvidagi boshqa shaxslar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish;
- ❖ korxonaning barqaror iqtisodiy mavqeini ta'minlash va shu asosda xodimlarning farovonligini oshirishdan iborat.

Korxonaning Missiyasi va Qarashlari

- ❖ Tabiiy uranni qazib olish, qayta ishlash va ishlab chiqarish bo'yicha sanoat ishlarining butun majmuasini amalga oshirish uchun maqbul yechimlarni yaratish.
- ❖ Tabiiy uran ishlab chiqarish bozorida MDH mamlakatlarining tan olingan yetakchisiga aylanish. Korxonaning asosiy strategik maqsadlaridan biri, o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlashdir.

"Navoiyuran" Davlat korxonasi konteksti va missiyasidan kelib chiqib, korxona Yuqori rahbariyati va xodimlari sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash sohasida o'z oldiga asosiy strategik maqsad qilib – texnologik jarayonlarni amalga oshirish

talablariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash, kasbiy kasalliklar xavfini va ishchilarning sog'lig'iga zarar yetkazishni kamaytirish, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishlarni qo'yadi.

Sifat menejmenti tizimi sohasidagi asosiy strategik vazifalar:

- ❖ korxonaning barqaror muvaffaqiyatga erishishi uchun, menejment tizimining umume'tirof etilgan tamoyillari va tavakkalchilikka asoslangan fikrlash asosida korxona faoliyatini amalga oshirish;
- ❖ xodimlarni samarali boshqarish, xodimlarning ish sifati va samaradorligini ta'minlashga qiziqishi va motivatsiya uchun sharoit yaratish;
- ❖ ichki bilimlarni tizimlashtirish va to'plash, ularni korxona xodimlarining yuqori kasbiy darajasini saqlab qolish uchun qo'llash;
- ❖ ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, mavjud ishlab chiqarish uskunalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;
- ❖ mahsulot sifatini yuqori darajada nazorat qilish uchun sharoit yaratish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi asosiy strategik vazifalar:

- ❖ atrof-muhitni muhofaza qilish, shu jumladan ifloslanishning oldini olish;
- ❖ atrof-muhitga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalar, uskunalar va materiallardan foydalanish;
- ❖ favqulodda vaziyatlar yoki boshqa kutilmagan vaziyatlar xavfini minimallashtirish, ularning oqibatlarini atrof-muhitga ta'sirini yumshatish;
- ❖ ishlab chiqarish jarayonida korxonaning atrof-muhitga ta'sirini monitoring qilish;
- ❖ bo'linmalar xodimlarini atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish masalalari bo'yicha o'qitish va jalb etish.

Sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash sohasida asosiy strategik vazifalar:

- ❖ ishlab chiqarishning, xodimlar, shuningdek korxona hududida ish bajarayotgan boshqa tashkilot xodimlarining sog'ligi va mehnat qobiliyatiga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- ❖ favqulodda yoki boshqa kutilmagan vaziyatlar xavfini minimallashtirish, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish va o'zgartirishlarni amalga oshirish jarayonida oqibatlarining, xodimlar salomatligi va xavfsizligiga ta'sirini kamaytirish;
- ❖ ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasbiy kasalliklarning oldini olish, xavflarni boshqarish tizimini joriy etish va jarohatlarni minimallashtirish tamoyiliga asoslangan xavfsizlik madaniyatini shakllantirish orqali korxonaning barcha xodimlari uchun xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlash.

Ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun Korxona Yuqori rahbariyati:

- ❖ mijozlarning ehtiyojlariga e'tibor qaratish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tegishli sifatini ta'minlash;
- ❖ sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohasida amaldagi qonunchilik va boshqa talablarga hamda ixtiyoriy ravishda qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilish;
- ❖ korxona boshqaruvi ostida ishlar olib borilayotgan hududda joylashgan xodimlar va shaxslarning atrof-muhit ifloslanishi va sog'lig'iga zarar yetkazilishining oldini olish;
- ❖ ushbu jarayonga xodimlar va ularning vakillarini jalb qilgan holda, sog'liqni saqlash va xavfsizlik sohasidagi xavflarni bartaraf etish va xavflarni kamaytirish;

❖ IBTning belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish va doimiy takomillashtirishning maqsad va vazifalariga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarning mavjudligini ta'minlash;

❖ IBT faoliyatining samaradorligini tahlil qilish;

❖ Integratsiyalashgan boshqaruv tizimini doimiy yaxshilash;

❖ mahsulot sifati, ekologiya, salomatlik va xavfsizlik hamda iqlim o'zgarishining IBTga ta'siri masalalari bo'yicha davriy ma'lumotlarni taqdim etish va barcha manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqotni davom ettirish;

❖ atrof-muhitni muhofaza qilish, ifloslanishning oldini olish;

❖ sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligi sohasida xavflarni bartaraf etish va kamaytirish;

❖ xodimlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish va ularning yoki vakillarining ishtirokini ta'minlash **sohalari majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.**

Korxonaning Yuqori rahbariyati belgilangan tamoyillarga qat'iy rioya etishi va korxonaning barcha xodimlarini ham bunga jalb qilishi kerak.

Korxonaning har bir xodimi, xavfli xatti-harakatlarning oldini olish va to'xtatish bo'yicha choralar ko'rish va agar bunday ishlar, xodimlar va manfaatdor tomonlarning hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirsa, ishni to'xtatishi va Korxona siyosatiga rioya qilish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishi shart.

TASDIQLAYMAN

"Navoiyuran" davlat korxonasi
Bosh direktori v.b.


A.B. Saparov
2025-yilning "17" dekabr

KELISHILGAN

"Navoiyuran" davlat korxonasi
6-sonli BKUQ raisi


D.N. Temirov
2025-yilning "15" dekabr